

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA ZEBINISO MAMARAJAB QIZI

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARNING
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY
TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH
(“Atvoq-uz-zahab fi-l mavoi'z va-l –xutab” asari misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TERMIZ – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi

Globalashuv sharoitida talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda Mahmud az-Zamaxshariy ta’limotidan foydalanish (“Atvoq-uz-zahab fi-l mavoi’z va-l –xutab” asari misolida).....5

Курбанова Зебинисо Мамараджаб кизы

Использование учения Махмуда аз-Замахшари в совершенствовании системы духовно-нравственного воспитания студентов в условиях глобализации (на примере произведения “Атвок-уз-захаб фи-л мавои-з ва-л-хутаб”).....23

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi

Using the teachings of Mahmud az-Zamakhshari in improving the system of students’ spiritual and moral education in the context of globalization (based on the work “Atvoq-uz-zahab fi-l mavoi’z va-l –xutab”).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA ZEBINISO MAMARAJAB QIZI

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARNING
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY
TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH
(“Atvoq-uz-zahab fi-l mavoi'z va-l –xutab” asari misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TERMIZ – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PHD/Ped6114 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziyounet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov Qutlug' Bekmurodovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Umarov Bahrom Norboyevich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" 10 soat 13.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99876) 223-13-11; 221-74-55. Faks: 0(376) 221-76-90; web-site: www.tersu.uz; e-mail: termizdu@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (316 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99876) 223-13-11; 221-74-55. Faks: 0(376) 221-76-90; web-site: www.tersu.uz; e-mail: termizdu@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil "27" 09 dagi 316 raqamli reestr bayonnomasi).



M.X. Shomirzayev,
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor.

A.B. Narbayev,
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.f.d., dotsent.

U.B. Abdiyev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonining bugungi bosqichida kelajak avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli, go'zal xulqli hamda ma'rifatli qilib tarbiyalash dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Dunyo olimlari tomonidan Mahmud az-Zamaxshariyning ilmga intilish, olamni anglash, axloqiy tarbiya va adolatga oid taraqqiyparvar g'oyalari chuqur tahlil etilmoqda. Xususan, 2023-yilda Turkiyada Sivas Cumhuriyet Universiteti tomonidan tashkil etilgan "Zamaxshariy – ko'p qirrali siymo"¹ mavzusidagi xalqaro konferensiya bu boradagi ilmiy izlanishlar uchun muhim debocha bo'lib xizmat qilgan.

Dunyo miqyosida Mahmud az-Zamaxshariyning ilmga intilish, olamni anglash, axloqiy tarbiya va adolatga oid taraqqiyparvar g'oyalari va ijtimoiy, falsafiy, diniy va tarbiyaviy qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda alloma Mahmud az-Zamaxshariy ijodining inson kamoloti haqidagi qarashlari, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, jamiyat haqidagi tasavvurlari va ularning ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi jarayonidagi ahamiyati chuqur tahlil etilmoqda. Bu borada globallashuv sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda Mahmud az-Zamaxshariy ta'limotidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yangi taraqqiyot poydevorini shakllantirish ustuvor maqsad etib belgilangan hozirgi davrda, yosh avlodni tarbiyalash jarayonida milliy ma'naviyatimizning negizi bo'lgan mutafakkirlar ilmiy merosidan samarali foydalanish dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada, Prezidentimiz ta'kidlashicha, "Dunyoga buxoriylar, beruniylar, termiziylar, moturudiylar, xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur"². Mahmud az-Zamaxshariyning yoshlarni iymon-e'tiqodlilik, bag'rikenglik va go'zal axloqqa chorlovchi tarbiyaviy qarashlari 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va boy ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash – ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi PF-1059-son³, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-

¹ "Bütün Yönleriyle Zemaşeri" Turkiye Sivas Cumhuriyet Üniversitesi Sivas / 2023 Editörler Prof. Dr. Ömer Aslan Prof. Dr. Ali Yılmaz

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2021. - b.289.

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son;

noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mahmud az-Zamaxshariy merosini o‘rganish Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. O‘zbekistonda Zamaxshariy ilmiy merosiga bag‘ishlangan 1995-yilda allomaning 920 yilligi keng nishonlanib, xalqaro anjuman o‘tkazildi. Bu tadbir uning ilmiy merosini xalqaro darajada tanitishga xizmat qildi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u tarbiya nazariyasi va metodikasi fanining barcha sohalarini qamrab oladi. Mustaqillik yillarida olib borilgan pedagogik tadqiqotlar jamiyat ma’naviyatini rivojlantirish va yosh avlodga milliy ma’naviyat hamda axloq madaniyatini singdirishga qaratilgan. Jumladan, N.Egamberdiyeva, M.Inomova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, R.Mavlonova, K.Nosirov, S.Nishonova, Sh.Olimov, Q.Qodirov, D.Ro‘ziyeva, N.Achilov, S.Norboyeva, M.Mirzayev kabi olimlar talaba yoshlarning ma’naviy va axloqiy madaniyatini shakllantirish masalalarini o‘rgandilar. Manbalar tahlil Mahmud az-Zamaxshariyning qarashlarini o‘rganishda asosan tilshunoslik, falsafa, adabiyot va axloqshunoslik, manbashunoslik, pedagogik sohalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu merosni o‘rganish, respublika olimlari tomonidan amalga oshirilgan katta ilmiy ishlar natijasida yangi ilmiy yondashuvlar va tahlillar yuzaga keldi. Jumladan, Z.Islomov, A.Rustamov, M.Hakimjonov, M.Nosirova, N.Sulaymonova, U.Uvatov, A.Boltayev, L.To‘rayev, A.Zohidov, M.A‘zam, I.Babanazarov, H.Ibrohimovlar, M.Jumaniyozov, M.Mahmud, Q.Mahmudov, U.Qoriyev, M.Raxmedova, N.Rahim, A.Turdiyev va boshqa olimlar Az-Zamaxshariyning merosini turli aspektlarini keng jihatdan tadqiq etgan. Shuningdek, tilshunoslik jihatidan M.Pirnazarov, N.Qobulov, S.Ro‘zimboyev, M.Safarboyev kabi olimlar Az-Zamaxshariyning ilmiy me‘yorlari va tilga bo‘lgan yondashuvlarini tahlil qilganlar. Bu ishlar uning ilmiy va madaniy merosini nafaqat o‘zbek xalqiga, balki jahon ilm-faniga keng tanitishga yordam berdi.

MDH olimlari, jumladan, K.Borovkov, V.Bartold, V.Belkin, I.Kratchkovskiy, M.Oqilov, A.Krimskiy va A.Xalidov Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganishga katta e‘tibor qaratgan. Xususan, V.Bartold va

K.Borovkov Az-Zamaxshariyning tarixiy va madaniy ahamiyatini, V.Belkin va I.Krachkovskiy esa uning axloqiy va ijtimoiy me'yorlar haqidagi fikrlarini yoritgan. B.Xalidov esa uning axloqshunoslik yondashuvlarini tahlil qilib, zamonaviy jamiyatga ta'sirini tahlilga tortdi.

Zamaxshariy merosini o'rganish va undan foydalanish bo'yicha Germaniya, Fransiya, Angliya, AQSh va Turkiya olimlari tomonidan ilmiy- tadqiqotlar amalga oshirilgan. K.Brokkelman, G.L.Flacher, X. Gibb, B. de Meynard, G.Veyl va Y.Fon Xammer, Baxiyja Boqir Al-Husniy va boshqa ko'pgina sharqshunos olimlar shular jumlasidandir.

Mahmud az-Zamaxshariy boy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha sharqshunoslik, tilshunoslik, tasavvufshunoslik, falsafa va qisman siyosiy yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar mavjud bo'lgani holda, alloma qarashlarining pedagogik tahlili xususan "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" asari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER - "Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" (2019-2023-yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mahmud az-Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" asari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mahmud az-Zamaxshariyning didaktik qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini siyosiy, diniy, falsafiy, tarbiyaviy yo'nalishlari bo'yicha tasniflash asosida rivojlantirish;

Mahmud az-Zamaxshariy hikmatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini asar turkumlarning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari hamda inson qadri munosabatlarini optimallashtirish asosida aniqlashtirish;

Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar falsafasining gumanistik xususiyatlarini xulq-atvor komponentlari mazmunini ochib berish asosida aniqlashtirish.

Mahmud az-Zamaxshariy asarlaridagi manaviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan "Ma'naviy kuch" strategiyasini ma'naviy-axloqiy prinsiplarni pedagogik chora-tadbirlar mazmuniga singdirish asosida ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Mahmud az-Zamaxshariy asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish.

Tadqiqotning predmeti Mahmud az-Zamaxshariy asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonining shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa so'rov, test); pedagogik kuzatish, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mahmud az-Zamaxshariyning didaktik me'rosidan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari konformizm (o'xshashlik, muvofiqlik, moslashuvchanlik)ni shaxsning mustaqilligi va tashabbuskorligi kabi xususiyatlar bilan uyg'un tarzda namoyon bo'lish barqarorligini sinxron ta'minlash asosida boyitilgan;

Mahmud az-Zamaxshariy hikmatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, ularda mujassam bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarning sinkretik xususiyatlari va mazmun-mohiyati pedotsentrizmga asoslangan vizual innovatsion ta'lim bilan bog'lanishi inson qadriyatlariga munosabatni takomillashtirish orqali aniqlashtirilgan;

Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar falsafasining gumanistik xususiyatlari ijtimoiy moslashuv, o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanish indikatorlaridan iborat modellashtirilgan bosqichni samarali muloqot jarayonlari bilan funksional integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida mujassam ma'naviy-axloqiy fazilatlar negizidagi "Ma'naviy kuch" strategiyasi ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarni istiqboili didaktik vazifalar bilan uyg'unlashtirish va relaksatsion yondashuvni tatbiq etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- Mahmud az-Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" asarining tarbiyaviy salohiyati va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik model takomillashtirilgan;

- Mahmud az-Zamaxshariy "Atvoq uz-zahab" asari asosida talabalarda axloqiy ong, ijtimoiy mas'uliyat, ezgulik va tafakkur madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashg'ulot shakllari, topshiriqlar tizimi, suhbat va muhokama metodlariga tayangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- O'quv-tarbiya jarayoniga Mahmud az-Zamaxshariy asaridagi ibratomuz hikmatlar, nutq madaniyati, ijtimoiy-siyosiy va diniy, falsafiy qarashlarni integratsiyalash orqali pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Fan metodologiyasi hamda, pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlat olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keladigan, bir-birini to'ldiradigan tadqiqot usullarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili, foydalanilgan nazariy va amaliy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi,

olingan natijalarning vakolatti organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amally ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida keltirilgan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, Mahmud az-Zamaxshariyning asarlari orqali talabalarda ilmiy tafakkur, ilmga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, bag'rikenglik, nafsni tarbiyalash, iroda kuchi, mustaqil fikrlash va o'z-o'zini anglash kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy g'oyalarning pedagogik jihatlari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan nazariy g'oyalarni qo'llash asosida "Umumiy pedagogika", "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv kurslarining mazmunini boyitish, talabalar bilimni baholash, fikrlash darajasini oshirish, Mahmud az-Zamaxshariy asarlarini oliy ta'lim muassasalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahmud az-Zamaxshariy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini rivojlantirish asosida:

Mahmud az-Zamaxshariyning didaktik me'rosidan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari konformizm (o'xshashlik, muvofiqlik, moslashuvchanlik)ni shaxsning mustaqilligi va tashabbuskorligi kabi xususiyatlar bilan uyg'un tarzda namoyon bo'lish barqarorligini sinxron ta'minlashni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan(O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabdagi "485"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №534281-sonli nashr guvohnomasi. ISBN 978-9910-56-708-7) (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-fevraldagi 02/01-01-49 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanini o'qitish va talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish samaradorligining ortishiga erishilgan.

Mahmud az-Zamaxshariy hikmatlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, ularda mujassam bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarning sinkretik xususiyatlari va mazmun-mohiyati pedotsentrizmga asoslangan vizual innovatsion ta'lim bilan bog'lanishi inson qadriyatlariga munosabatni takomillashtirish orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi" nomli kitob mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2024-yil 28-noyabdagi 02/525 son ma'lumotnomasi) Natijada, Mahmud az-Zamaxshariy tarbiyaviy-axloqiy qarashlarini omma e'tiboriga havola qilishga erishilgan.

Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar falsafasining gumanistik xususiyatlari ijtimoiy moslashuv, o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanish indikatorlaridan iborat modellashtirilgan bosqichni samarali muloqot jarayonlari bilan funksional integratsiyalash orqali takomillashtirishga oid

taklif va tavsiyalar 60110100 – “Pedagogika” ta’lim yo’nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-fevraldagi 02/01-01-49 sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishning sifat samaradorligining oshishiga erishilgan.

Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida mujassam ma’naviy-axloqiy fazilatlar negizidagi “Ma’naviy kuch” strategiyasi ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarni istiqbolli didaktik vazifalar bilan uyg’unlashtirish va relaksatsion yondashuvni tatbiq etish asosida takomillashtirishga old taklif va tavsiyalar Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida 2023-2024-yillar davomida bajarilgan “Separatizm va mutaassiblik g’oyalari ta’siriga tushib qolgan yoshlar va xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish” loyihasini bajarishda foydalanilgan. Loyiha doirasida nashr qilingan “Sog‘lom e’tiqod - barqarorlik garovi” kitobining mazmun-mohiyatiga singdirilgan. (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2024-yil 17-dekabrda 01-07/212 son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, 1 ta o‘quv qo‘llanma, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, 5 tasi respublika 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 9 tasi xalqaro va respublika konferensiyalarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari aniqlangan, uning ilmiy yangilligi, nazariy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Mahmud az-Zamaxshariy ta’limotidan foydalanishning ilmiy-nazariy va tarbiyaviy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida globallashtirish sharoiti, Mahmud az-Zamaxshariy ma’naviy-axloqiy ta’limoti, uning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” asaridagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

“Ustoz ul-dunya”(Butun dunyo ustoz) “Ustoz ul-arab va-l ajam” (Arablar va g‘ayri arablar ustoz), “Faxru Xorazm” (Xorazm faxri) kabi sharafli unvonlarga ega bo‘lgan Mahmud az-Zamaxshariy va uning ilmiy salohiyatini chuqurroq tushunish va tahlil etish nuqtayi nazaridan, u voyaga etgan muhitning ijtimoiy, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mahmud az-Zamaxshariy islom ilmi va axloqiy falsafasida muhim o‘rin tutgan alloma bo‘lib, uning asarlari axloqiy qadriyatlar va ma‘naviy fazilatlar bilan boyitilgan. Faylasuflar, sharqshunoslar, siyosatshunoslar, tilshunoslar va axloqshunoslar tomonidan Mahmud az-Zamaxshariyning ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari, ayniqsa, ijtimoiy me‘yorlar, ularning ahamiyati, amal qilish mexanizmi va maqbul me‘yorlarni shakllantirish usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mahmud az-Zamaxshariyning asarlari nashr qilinib, tarjima qilindi va ularga sharhlar berildi.

Alloma hayoti va ijodini XI asrga bog‘lash mumkinligini inobatga olgan holda, akademik Alibek Rustamov mutafakkir haqida quyidagicha ma‘lumot beradi: “Zamaxshariyning ismi Mahmud, otasiniki Umar, bobosining nomi esa Ahmad bo‘lib, kunyasi Abulqosim, nisbasi Zamaxshariy edi. U hijriy 467 yil rajab oyining 27-sanasida Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga kelgan. Bu sana milodiy 1075 yilning 18-martiga to‘g‘ri keladi. ‘Sho‘ro‘ jurnalining 1917 yil 1-sonida Zamaxshariyning tug‘ilgan yili 1075 yil mart oyi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, ayrim sharqshunos olimlar, xususan B.Z. Xolidov, uning tug‘ilgan yilini 1074 yil deb belgilaydi. Aslida esa, hijriy 467 yilning dastlabki to‘rt oyi milodiy 1074 yilga, yettinchi oy bo‘lmish rajab esa 1075 yilning 20-fevralidan boshlanganiga to‘g‘ri keladi⁴”. Mahmud Zamaxshariydek buyuk allomaning tug‘ilib o‘sgan Zamaxshar qishlog‘i, uning yurti bo‘lgani tufayli, vaqt o‘tishi bilan butun dunyoga tanilgan va dong‘i ketgan qishioqqa aylangan.

Mahmud Zamaxshariy haqidagi ma‘lumotlar asosan o‘rta asr arab manbalarida uchraydi, shuningdek, ayrim qimmatli ma‘lumotlar olimning o‘z asarlarida ham qayd etilgan. Zamaxshariy jamiyatning umumiy ko‘rinishida Islom dini belgilovchi, ilm sohalarida esa Arab tili va adabiyotining hukmronligi mavjud bo‘lgan muhitda yashaganini aytishimiz mumkin. Shu sababli, Zamaxshariyning mavjud madaniy muhitga moslashishi ham qiyin bo‘lmagan. Chunki ijtimoiy mavjudot sifatida insonning atrof-muhit omillaridan ijobiy yoki salbiy ta‘sir lanishi tabiiydir. Jamiyatning umumiy holati shunday bo‘lgan bir paytda ozchiliklar ham o‘ziga xos madaniyatini rivojlantirgan, fikr va ifoda erkinligiga ega bo‘lgan, an‘ana va urf-odatlarini erkin muhitda yashaganlarini ta‘kidlash lozim. Zamaxshariy, barcha asarlarida va tadqiq etgan mavzularida o‘ziga xos fikrlar, o‘ziga xos yo‘nalish uslubi va ifoda tarziga ega bo‘lgan.

Mahmud az-Zamaxshariyning boy va sarmazmun ilmiy merosi jahonshumul ahamiyat kasb etgani, uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilinganida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Buyuk allomaning asarlari ingliz, fransuz, nemis, lotin, rus, tatar, fors, hind, turk kabi Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilingan bo‘lib,

⁴ Rustamov A. Mahmud az-Zamaxshariy. – Toshkent: Fan. 1971. – 32 b.

ularning ko‘pchiligiga mashhur olimlar tomonidan sharhlar, izohlar yozilgan. Bu holat Zamaxshariyning ilmiy merosi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilganini tasdiqlaydi.

Allomaning asarlariga bo‘lgan ilmiy qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Uning mashhur asarlari Parij, Berlin, Qohira, Iskandariya, Tunis, Bag‘dod, Damashq, Bayrut, Dehli, Kalkutta, Haydarobod, Qozon kabi yirik ilmiy markazlarda muntazam ravishda nashr etilgan. Bundan tashqari, Zamaxshariy tomonidan yaratilgan asarlarning turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari va ularga yozilgan sharhlar Myunxen, Leyden, Leyptsig, Gamburg, Kembrij, Manchestr, Milan, Sankt-Peterburg, Tehron, Peshovar kabi shaharlardagi milliy kutubxonalar va qo‘lyozmalar fondlarida ehtirom bilan saqlanmoqda. Yuqoridagi ma‘lumotlar, shubhasiz, Mahmud az-Zamaxshariyning ilm-fan tarixidagi buyuk o‘rnidan dalolat beradi. Uning asarlari bu qadar ko‘p marta nashr qilinmagan, turli tillarga tarjima etilmagan va dunyoning eng nufuzli kutubxonalarida asrab-avaylab saqlanmagan bo‘lar edi. Shu boisdan ham Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi bugungi yosh avlod qalbida faxr tuyg‘usini uyg‘otishi, ularni komillik sari ilhomlantirishi va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Zamaxshariy “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” nomli asarida har bir mavzu yoki maqolada oyat yoki hadisga murojaat qilgan. U mavzularini adabiy uslubda bayon qilib, tinglovchilarni lol qoldirgan. Masalan, asarining oltinchi maqolatida duo mohiyatini tahlil qilarkan, ba’zi oyatiarga ishora qiladi. “Ollohning rizosini istasang, shuni yaxshi bilki, tumtaroq, ya’ni tashqaridagilarga ta’sir qilish uchun qilingan soxta hatti-harakat va dabdabali amal nafsning havo va orzusidandir. Unga bo‘lgan duo va niyozingni, yolvorishingni yashir. Yaxshilab yashir ochiqchasiga baqirib-chaqirib qilingan duolar nafsning istagi xohishidir. Nafs va ochko‘zlikning har qanday istagini yo‘q qil” Zamaxshariy fikricha, inson duo qilayotganda, eshitmaydiganlarga ovozini yetkazganday baland baqirmasligi, ko‘p bezatilgan, bo‘yalgan so‘zlardan tiyilishi kerak. Uning ta’kidlashicha, baland ovozda qilinadigan duo nafsning havosidan kelib chiqadi. Agar inson bid‘atga emas, balki sunnatga moyil bo‘lsa; namoyishkorona emas, balki qalbidan o‘tganini biluvchi Allohning roziligini istasa, samimiy tarzda ich-ichidan duo qilishi lozim. Zamaxshariy o‘z sohasida etuk bir olimdir. Tadqiqotimiz davomida dastlabki bosqichda ma’naviyat, axloq masalalariga to‘xtaldik.

Dissertatsiyada ma’naviyat inson ichki olamini ifodalovchi tushuncha hisoblanib, u jamiyat va shaxs hayotining ichki mazmunini belgilovchi, inson ongida shakllanuvchi axloqiy, aqliy, estetik, ruhiy va madaniy qadriyatlar tizimidir. U kishining dunyoqarashi, e’tiqodi, odob-axloqi, vijdoni va ma’naviy ehtiyojlarini o‘zida aks ettiradi.


Ma’naviyat insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi eng asosiy belgilardan biri bo‘lib, uning jamiyatdagi ijtimoiy rolini, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini va o‘zligini anglashini belgilaydi. Demak, axloq inson xulq-atvori, muomalasi, e’tiqodi va jamiyatdagi o‘zini tutish qoidalarini tartibga soluvchi qadriy me’yorlar tizimidir. U shaxsning ichki dunyosida shakllanib, tashqi xatti-

harakatlarida namoyon bo‘ladi. Axloq orqali inson jamiyat bilan uyg‘un yashash, ijtimoiy munosabatlarga moslashish va ma’naviy yuksalishga intiladi.

Alloma ijodida axloq ijobiy fazilatlar va salbiy illatlar bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlarni birlashtirishi yoshlar ma’naviyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasi haqidagi asarlarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash ayniqsa bugungi kunda ahamiyatlidir. Ularning ma’naviy merosi yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o‘ynab, milliy qadriyatlarni saqlashda poydevor yaratadi. Shuningdek, ma’naviy merosga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, chuqurroq o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish yoshlar tarbiyasini rivojlantiradi. Bu jarayon yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirib, ularda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Xususan, Mahmud az-Zamaxshariyning asarlari yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega. Uning g‘oyalarida ilmiy rivojlanish bilan birga, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatishga ham katta e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotda Zamaxshariyning hayoti, atrof-muhiti, madaniy va fikriy dunyosi hamda asarlari haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, tadqiqotning asosiy mazmunini ushbu asarda bayon etilgan islomiy axloqning insonda shakllantiradigan fazilatlarini, inson xulqini buzuvchi holatlar bilan bog‘liq maqolalarni boshidan oxirigacha bezab turgan lafziy va ma’naviy adabiy san’atlar tashkil etadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” asarida nafaqat ta’limiy manba sifatida o‘rganish, balki hikoya va hikmatli so‘zlarni tematik jihatdan o‘rganishni talab qiladi (1-rasm)



1-rasm. Mahmud Az-Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” asarida ma’naviy fazilatlar turlari

Dissertatsiyaning “Mahmud az-Zamaxshariy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirish” deb nomlangan

ikkinchi bobda “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” asari vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga oid ta’limotlarning mazmuni” tahlil qilinadi.

Mazkur pandnoma asarda keltirilgan ta’lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi hikmatli soʻzlar, nasihatlar orqali Mahmud-az Zamaxshariyning dunyoqarashi, fikr-mulohazalari bilan yaqindan tanishish mumkin.

Mahmud az-Zamaxshariyning axloqqa doir fikrlari uning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” (“Va’z va xutbalarda oltin shodalar”) asarida turli xil hikoyalar va ramzlar shaklida ifoda etiladi. Mahmud az-Zamaxshariy oʻzining axloqiy qarashlarida oʻz zamonasining turli tabaqa vakillari va kasb-hunar egalarining jamiyatda tutgan oʻrni va axloq-odobi toʻgʻrisida fikr yuritarkan, mutafakkir shaxsning qandayligidan, kimligidan (xoh shoh boʻlsin, xoh gado) qatʼiy nazar, avvalo, u xushxulq va odamiylik fazilatlariga ega boʻlmogʻi lozimligi xususida gapiradi va “Goʻzal sifat va xushxulqlik siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar koʻrkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forigʻ boʻlmas”-deydi. Mutafakkir botiniy (qalb) goʻzailik – asosiy, belgilovchi, ilohiy narsadir, zohiriy (tashqi, yuzaki) goʻzallik esa ikkinchi darajali hosila narsadir, deya taʼkidlaydi.

Mahmud az-Zamaxshariyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning mavjud holati oʻquv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-maʼrifiy va tarbiyaviy ishiarni oʻrganish oliy taʼlim muassasalarining umumkasbiy fanlar, mustaqil taʼlim jarayoni va auditoriyadan tashqari ishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Az-Zamaxshariy asariga koʻra, inson azaldan uning nazaridan yashirin barcha narsalarni bilishga intiladi. Ilmni egallash yoki aksincha, nodonlik va johillikni oʻziga martaba sifatida koʻrish, kishilarning oddiy munosabatidan tashqari, odob-axloq sohasining muhim tamoyiliga ham aylangan. Bu tushunchalar, oʻz mohiyatiga koʻra, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va illat kabi qarama-qarshi qadriyatlar orqali talqin qilinishi lozim. Agar insonning mijozi buzilgan, tarbiyasi nomaqbul va pastkash xulqi ustuvor boʻlsa, unda ilmga boʻlgan qiziqish va uning gʻaroyib lazzatidan bahramand boʻlish ishtiyoqi kamol topmaydi. Ilmni egallashga boʻlgan har qanday intilish, kishining eʼzozini oshiradi va uning martabasini yuksaltiradi. Bu jarayon nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy rivojlanishga ham hissa qoʻshadi.

Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” nomli falsafiy-didaktik asari tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Az-Zamaxshariy ushbu asarni kelajak avlod uchun yanada foydali va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlishi uchun asar muqaddimasida quyidagicha bayon etilgan: “Oллоhim, sendan nabiylarning, paygʻambarlarning oxirgisi, hamma sevganlaringning xojasi, sayyidi boʻlgan hazrati Muhammad Mustafо (s.a.v)ga va uning har biri bitta hidoya yulduzi, taqvo va xayr sohibi boʻlgan sahobalariga va oila, yaqinlariga rahmat va salomimni darigʻ tutma deb yolvorib, duo qilib iymonimni va amaliarimni, barcha xizmatlarimni, qalamimning yozgan va yozajak boʻlgani va qalbidam tugʻilajak, paydo boʻlgan maqomalarni, Karim boʻlgan sifatining hurmatiga oʻqimoqchi boʻlganlarga fayz va barakot berishingni, bu yozganlarimga sharqda, gʻarbda va

hamma tomonda odamlar foydalanadigan va istaydigan yozuvlar bo‘lish barakatini ato qilg‘il’⁵.

Alloma ta’kidlaganidek: asarda yuzta maqola mavjud bo‘lib ular va’z nasihat, hikmatli so‘zlar, masal va maqolalardan, olimning ko‘p yillik sayohati natijasida umr bo‘yi eshitgan, ko‘rgan va boshdan kechirgan voqelarining tafsilotidan iborat hikmatlar durdonasi hisoblanadi.


Mahmud az-Zamaxshariy go‘zal xulq va saxovatni insonning ma’naviy kamolotining muhim fazilatlari sifatida ta’riflaydi. “Muruvvat” Yaratganning rozligiga loyiq bo‘lib, insonni boshqalarga mehr-shafqat ko‘rsatishga undaydi. Saxovat esa insonning boshqalarga yordam berish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash tabiatidir. Zamaxshariy pastkashlikni eng yomon sifat deb biladi, chunki u jamiyatni buzadi. Saxovat esa birodarlikni mustahkamlaydi, jamiyatda tinchlik va birdamlikni ta’minlaydi.

Az-Zamaxshariy aqlli, odobli insonni doimo himoya qiladi. Ideal inson har tomonlama yomon illatlardan qochadi. U insonning aqlli bo‘lishi va go‘zal axloqni qunt bilan o‘zlashtirishi uchundir, faqat shu holatda u haqiqiy inson hisoblanadi. Bunday inson bo‘lishi uchun aql bo‘lishi kerak: “Aqlli va ahmoq. Aqlli inson aql va mantiq nimani taqozo qilsa, o‘sha xayrli ishga g‘ayrat qilar. Ahmoq esa bir marta ishi yurishmay qolsa, hafsalasi yo‘qolib, hech bir ishda tashabbus ko‘rsatmas va charchab, horigan yuk tashuvchilar kabi o‘tirib qolar”. Aql-farosat va zakovat bilan ish yuritish uchun inson doimo zehni bo‘lishi kerak.

Az-Zamaxshariy: “Inson savob amali va iymoni borligi uchun el orasida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Inson tili va yurak degan bir parcha go‘shiti borligi uchun emas, balki savob amali, yaxshilik va iymon ismli ikki buyuk boyligi borligi bo‘lsa insondir. Bu ikki buyuk fazilat unga yor bo‘lmasa, boshqa kuch-qudratdan foyda yo‘qdir” Mahmud az-Zamaxshariy ta’kidlaganidek, insonning umrining qisqaligini hisobga olib, o‘tkinchi dunyoda yomon odatlar va noxush moyilliklar bilan yashash vaqtni behuda sarflashdan boshqa narsa emas. Zamaxshariy ijodida shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarining ijobiy va salbiy tomonlari turli qochirmalar asosida ochib berilgan.

Mutafakkirning “Atvoq uz-zahab fi-l mavoiz va-l xutab” asari asosida bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan “xalqning dardi bilan yashash” mavzularida teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va davra suhbatlari olib borish ham maqsadga muvofiqdir. Zamaxshariy ilmiy merosini oliy ta’lim muassasalari talabalariga dars mashg‘ulotlarida joriy etishda yangi pedagogik usullar, interaktiv metodlar kompleks xarakterga ega bo‘lib, Klassik ma’ruza metodi orqali dars ishlanmalari ko‘rsatib beriladi. Globallashtirish sharoitida talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirish maqsadida Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq-uz-zahab fi-l mavoiz va-l xutab” asaridan foydalanishga asoslangan model takomillashtirildi.(2- rasm).

⁵ Mahmud M., Rahim N. Oltin shodalar. – Toshkent. 2010. – B. 21.



2-rasm. Mahmud az-Zamaxshariy ilmiy merosi vositasida talaba yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishning pedagogik modeli

Mazkur model talabalarda Mahmud az-Zamaxshariy ilmiy merosi vositasida talaba yoshiarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan. Unda avvalo yoshlar ongida ilmga muhabbat, axloqiy barkamollik, ijtimoiy mas'uliyat, shaxsiy etuklik asosiy maqsad qilib olingan bo'lib nazariy asos sifatida Mahmud az-Zamaxshariy "Atvoq uz-zahab" asaridagi axloqiy g'oyalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar xizmat qiladi. Metodologik yondashuv sifatida tarbiya jarayonida empirik, ijodiy, tarixiy-madaniy, individual, shaxsga yo'naltirilgan va dinga asoslangan manbalar muhim o'rin egallaydi. Axloqiy vaziyatlar, interfaol metodlar, va motivatsion sharoitlar orqali tarbiyaviy jarayon tashkil etiladi. Mazmuniy jihatdan darslar Mahmud az-Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab" asariga tayangan holda savol-javob, bahs-munozara, maslahat va tahlil usullarida olib boriladi. Natijada talabalar qaror qabul qilishda axloqiy sifatlarni o'rganadi, o'zini anglaydi, ongli ravishda mas'uliyatni his qiladi va xulq-atvor mezonlari asosida o'zini tahlil qilishga intiladi.

Dissertatsiyaning "**Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishning pedagogik samaralari**" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari va natijalari bayon etilgan.

Mahmud az-Zamaxshariy asarlari orqali talabalar orasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov tadqiqotlari tahlil, sintez va taqqoslash metodlari asosida amalga oshirildi. Ushbu tajriba-sinov ishlari 2021-2024 yillar davomida Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti tanlandi. 454 nafar talaba respondent sifatida tajriba-sinov ishlariga jalb etildi.

Biz talabalarning ajdodlarimiz pedagogik merosi haqidagi tasavvurlari va bilimlarini boyitish maqsadida quyidagilarni amalga oshirdik:

1. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanilgan materiallar va olingan natijalar har tomonlama tahlil qilindi.
2. Tajriba-sinov jarayonida respondent-talabalarning bilish imkoniyatlari va professor-o'qituvchilarning ajdodlarimiz merosiga oid bilimlarining mavjud darajasi o'rganildi.
3. Tajriba-sinov ishlarining natijalariga tayangan holda talabalar bilimni baholash mezonlari aniqlandi.
4. Umumiy pedagogika fan dasturi doirasida talabalarga taqdim etiladigan ajdodlarimiz merosiga oid bilimlarni aniq mavzularga singdirish imkoniyati o'rganildi.
5. Tajriba-sinov natijalarining haqqoniyligini baholash maqsadida statistik tahlil amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etilgan respondentlarning bajargan amaliy ishlari to'planib, ular sifat jihatdan tahlil qilindi, natijalari umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun dastlab quyidagi hujjatlar tayyorlandi:

1. Tajriba-sinov dasturi.
2. Ajdodlarimiz pedagogik merosini aks ettiruvchi rasmlar, fotolavhalar ishlanmalar tahlilini qayd etuvchi slaydlar.

3. Tajriba-sinov davomida respondentlar bilan o'tkazilgan suhbatlar, adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil etish, savol javoblarning tahlili.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi ma'lumotlar qo'lga kiritildi:

1. Respondentlarning test savollariga bergan javoblari;
2. Talabalar javoblarining tahlili, aniqlangan mavjud bo'shliqlar;
